



SOCIOLOGY OF CULTURE AND ITS PLACE IN THE SYSTEM OF SOCIAL SCIENCES

Odinakhon Abdusamatova

student

*Fergana State University,
Fergana, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: culture, material and spiritual culture, moral culture, sociology of culture, stages of cultural development, mass culture.

Received: 25.06.24

Accepted: 27.06.24

Published: 29.06.24

Abstract: today there are a number of disciplines studying culture, the stages of cultural development, and its place in society. The main ones are: social philosophy, sociology, ethnology, ethnography, cultural and social anthropology, cultural studies, sociology of culture and philosophy of culture. All these social sciences study cultures belonging to different societies and eras through the collection and analysis of empirical data. Determining the difference and the boundary between them is one of the most difficult tasks. To this day, scientists studying these disciplines mostly distinguish them based on the different schools and directions that led to the creation of these disciplines.

This article sociologically examines the importance of the science of sociology of culture in the development of society, as well as its place in the system of social sciences.

MADANIYAT SOTSIOLOGIYASI VA UNING IJTIMOIIY FANLAR TIZIMIDA TUTGAN O'RNI

Odinaxon Abdusamatova

talaba

*Farg'ona davlat universiteti
Farg'ona, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: madaniyat, moddiy va ma'naviy madaniyat, axloqiy madaniyat, madaniyat sotsiologiyasi, madaniyat rivojlanish bosqichlari, ommaviy madaniyat.

Annotatsiya: Bugungi kunda madaniyatni, madaniyat rivojlanishi bosqichlarini, uning jamiyatdagi tutgan o'rnini o'rganuvchi bir qator fanlar mavjud. Shulardan

eng asosiylari: ijtimoiy falsafa, sotsiologiya, etnologiya, etnografiya, madaniy va ijtimoiy antropologiya, madaniyatshunoslik, madaniyat sotsiologiyasi va madaniyat falsafasi. Ushbu ijtimoiy fanlarning barchasi empirik ma'lumotlarni to'plash va analiz qilish orqali turli jamiyat va davrlarga tegishli bo'lgan madaniyatlarni bir-biriga nisbiy ravishda o'rganadi. Ular o'rtasidagi farqni va chegarani aniqlash mushkul masalalardan biridir. Shu kunga qadar bu fanlarni o'rganib kelayotgan olimlar, asosan, ushbu fanlarning yaratilishida sababchi bo'lgan turli maktab va yo'nalishlarga asoslangan holda ularni bir-biridan ajratib kelmoqdalar.

Ushbu maqolada madaniyat sotsiologiyasi fanining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati, shuningdek, ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o'рни sotsiologik jihatdan tadqiq etilgan.

СОЦИОЛОГИЯ КУЛЬТУРЫ И ЕЕ МЕСТО В СИСТЕМЕ ОБЩЕСТВЕННЫХ НАУК

Одинахон Абдусаматова

студентка

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: культура, материальная и духовная культура, нравственная культура, социология культуры, этапы развития культуры, массовая культура.

Аннотация: сегодня существует ряд дисциплин, изучающих культуру, этапы развития культуры, ее место в обществе. Основными из них являются: социальная философия, социология, этнология, этнография, культурная и социальная антропология, культурология, социология культуры и философия культуры. Все эти социальные науки изучают культуры, относящиеся к разным обществам и эпохам, посредством сбора и анализа эмпирических данных. Определить разницу и границу между ними – одна из самых сложных задач. По сей день ученые, изучающие эти дисциплины, в основном различают их, основываясь на различных школах и направлениях, которые послужили причиной создания этих дисциплин.

В данной статье социологически исследуется значение науки социологии культуры в развитии общества, а также ее место в системе социальных наук.

KIRISH

Mustaqillikka erishganimizdan keyin bozor iqtisodiyotiyotiga asoslangan mustaqil demokratik davlat barpo etish, inson manfaatlarini, huquq va erkinliklari, qonun ustivorligi hamda mamlakatimiz barcha fuqarolari uchun qonun oldida tenglik ta'minlanadigan fuqarolik jamiyatini shakllantirish strategik maqsad sifatida belgilangan. Vatanimizning kelajagi bo'lgan yosh avlodning ma'naviy olamini boy, har sohada barkamol qilib tarbiyalash uchun butun insoniyat necha ming yillar davomida yaratgan moddiy va ma'naviy madaniyat xazinalaridan bahramand etish, unda barcha xalqlarga hurmat, milliy iftixor, vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini uyg'otish va shakllantirishdan iborat. Dunyoda yuz berayotgan globallashuv jarayoni esa madaniyat sotsiologiyasi fanining yuksalishiga va o'rganilishiga turtki bo'lmoqda. Madaniyat sotsiologiyasi sotsiologiyaning muhim va yangi zamonaviy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u madaniyatning vujudga kelishi, zamonaviy holati va istiqbolini tarixiy va sotsial tadqiqotlar yordamida o'rganuvchi fandır.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashsoqlik – bu ilmsizlikdir. Shu sababli hammamiz uchun ilg'or bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak"[1].

Hozirgi zamon yoshlarining qadr-qimmatiga bo'lgan munosabati, intilishlari, hayotiy rejalari, ijtimoiy-siyosiy foalligi ko'p tomondan ta'lim, mehnat va ishlab chiqarish, iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalaridagi tadbirlarga bog'liq. Bugungi kunda olimlar yoshlarni u yoki boshqa ijtimoiy-psixologik xarakteristika, ijtimoiy xususiyatlari bilan ajralib turuvchi ijtimoiy-demografik guruh sifatida tasvirlaydilar. Yuqoridagilar ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanish, sotsializatsiya darajalari bilan shakllanadi.

ASOSIY QISM

Madaniy tushunchalar ko'pgina fanlarning o'rganish ob'yekti hisoblanadi. Shu boisdan ham madaniyatning mohiyati va mazmuni, tarkibiy qismlari turli fan sohalarida namoyon bo'lib, falsafa, madaniyat sotsiologiyasi, tarix, lingvistika, antropologiya, etnografiya, san'atshunoslik singari fanlarda ham tadqiq etiladi. Bu tabiiy hol. Zero madaniyat juda murakkab, serqirra, doimo rivojlanib bordigan ijtimoiy hodisadir. Zero yuqorida sanab o'tilgan ijtimoiy-gumanitar fanlar madaniyatni konkret hodisa sifatida, uning biror sohasi, yo'nalishi, ko'rinishini o'rganadi.

Madaniyat tushunchasi sotsiologiya fanida ko'p tadqiq etiladigan jarayon hisoblanadi. Ayniqsa, madaniyat sotsiologiyasi va u bilan bog'liq holda madaniyat sotsiologiyasi madaniyatni tizimli tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Madaniyat sotsiologiyasi ijtimoiy voqealar va elementlarni madaniy kontekstda talqin qilishni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, bu ijtimoiy muammolarni

madaniy tahlil qilish demakdir. Sotsiologlar madaniyatni juda muhim tushuncha deb bilishadi, chunki u hamma o'rgangan va baham ko'rgan barcha xatti-harakatlarni qamrab oladi.

Sotsiologik jihatdan madaniyat fikrlash va tavsiflash usullari, harakat qilish usullari va birgalikda odamlarning turmush tarzini tashkil etadigan moddiy ob'ektlar sifatida ham tahlil qilinadi. "Madaniyat sotsiologiyasi" barcha ijtimoiy fanlar bilan bog'liqlikda o'rganiladi. Tarix, falsafa, ijtimoiy antropologiya bilan bir qatorda, yosh shaxsning dunyoqarashini shakllantirishga hissa qo'shadi. Madaniyat nima ekanligini tushunish ko'p jihatdan inson va jamiyatning mohiyatini tushunishdir. Aynan madaniyatda inson o'z mohiyatini topadi, asta-sekin tabiiy shaxsdan shaxsga, o'ziga xos individuallikka aylanadi.

Hozirgi kunda sotsiologiya va uning yo'nalishidagi fanlarga ehtiyoj yanada ortib bormoqda. Keyingi yillarda sotsiologiya bo'yicha mutaxassislar, olimlar etishib, ular bu fanning har-xil tarmoqlari va bo'limlari bo'yicha nazariy va amaliy ahamiyatga molik ilmiy ishlarni chop ettirmoqdalar.

Qaysi jamiyatda sotsiologiya kuchliroq rivojlansa, bu mana shu jamiyatning o'zini to'laroq anglatotgani alomatidir. O'zbekistonning hozirgi kundagi taraqqiyotiga tadbiquan esa sotsiologiyaning rivojlanishi mamlakatda kechayotgan islohotlarning yo'nalishi, bosqichlari, muammolari va ularni hal qilish yo'llarining to'liq, hamda atroflicha anglashini bildiradi.

Madaniyat tushunchasi jamiyat tushuncasi singari sotsiologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalardan biri. Madaniyat o'z ichiga muayyan guruhlariga taalluqli bo'lgan qadriyatlarni, ular rioya etadigan me'yorlarni, ular yaratadigan moddiy noz-ne'matlarni qamrab oladi.

"Ma'lumki, "madaniyat" - bu ta'riflari soni yuzdan ortiq bo'lgan ko'p ma'noli tushunchalardan biri hisoblanadi. Ehtimol, aynan shu noaniqlik, shuningdek, "madaniyat" tushunchasining qadriyatga oid va dunyoqarashga oid ravishda ulkan yukka egaligi sababli ko'plab tadqiqotchilar undan foydalanmaslikka harakat qiladilar"[2]. Madaniyat inson faoliyatining mahsuli va sifat ko'rsatkichi sanaladi. Insonning o'zi ham pirovard natijada madaniyat mahsulidir. Jamiyatdagi madaniy muhit qanday bo'lsa, inson ham shunday shakllanadi"[3].

"Madaniyat" so'zining tarixiga e'tibor qaratilsa, u ijtimoiy hayotda ma'no jihatidan murakkab talaffuzga ega mazmun kasb etib, ilmiy amaliy va kundalik hayotda keng qo'llaniladi. Turli ijtimoiy-gumanitar fanlarda ong va tafakkur bilan bog'liq turli sotsial tizimlardagi murakkab tushunchalarning izohini ta'riflashda ham unga murojaat qilinadi.

Madaniyat hodisasini o'rganuvchi ijtimoiy fanlarning barchasi unga o'z tadqiqot obyekti va perdmoti nuqtayi nazarlaridan kelib chiqib yondoshsalarda, lekin ular o'rtasidagi farqlar bugungi kungacha ham nisbatan mavhumligicha qolmoqda. Madaniyatshunoslik madaniyatning vujudga kelish sababi va shart-sharoitlarini, taraqqiyot qonuniyati va rivojlanish tendensiyasini yagona bir

sistema sifatida o'rganish, uning vazifalari va tuzilishini aniqlash kabi mujassamlashgan ilmiy izlanishlar olib borish bilan shug'ullanadi. Turli sohalarida (falsafa, ilohiyot, etika, estetika va hokazo) ilmiy asarlar yaratgan olimlarning madaniyatga nisbatan, uning qonuniyatlari va rivojlanish tendensiyasiga nisbatan bergan baholari majmuyini o'rganish ham madaniyatshunoslik vazifalaridan biridir. Kundalik hayotda "madaniyat" atamasini qo'llar ekanmiz, ongning oliy mahsullari bo'lgan san'at, adabiyot, musiqa, rassomlik kabilarni nazarda tutamiz.

Madaniyat – jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi.

"Madaniyat – bu hayotning bor sohasi emas. U faqat ilm-fan, ma'rifat, din, adabiyot, san'at, ijod, ijobiy an'ana kabilar bilan cheklanib qolmaydi. Madaniyat inson hayotining barcha sohalarida namoyon bo'ladi va u barcha sohalar uchun zarur"[4]. U yoki bu xalqning milliy madaniyati ijtimoiy hayotning muayyan shakli, hayotning turli sohalarini tashkil etishning yangi mexanizmi bilan uzviy bog'liq holda faoliyat ko'rsatmoqda. Demak, madaniyatni tahlil qilish hayotning barcha sohalarini mazmunini ochib berish bilan uzviy bog'liqdir.

"Madaniyat ijtimoiy hayotning bir butun tarzda tashkil topishini ko'rsatib beradi. Insonlarning turlicha qarashlari, fikr va xayollari, faoliyatlari madaniyat tizimida birlashadi, tartibga tushadi. Bu esa, jamiyatning tartibga tushgan tizimini tashkil etadi. Madaniyat tizimining bir butunligi va uning turlicha ifodalanishini, umuminsoniy madaniyat bilan milliy madaniyatning uyg'unligini tahlil qilish madaniyat falsafasining vazifasidir"[5].

"Madaniyatni o'rganishda ob'yektiv qonuniyatlar, hodisalardagi sababiy bog'liqlik haqidagi an'anaviy tasavvurlardan foydalanmaslik ham mumkin. Umumiy bir soha sifatida madaniyatga sistemali yondashuv bir-biriga ta'sir etuvchi turli madaniyat sohalarining o'ziga xos xususiyatlarini qismlarga bo'lib emas, balki ularni yaxlit tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Sistemali yondashuv tadqiqotning juda ko'p uslublaridan foydalanishga imkon yaratadi"[6].

Madaniyat-insonlardan ijodiy faoliyat tufayli yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuasiga aytiladi. Madaniyat atamasi hozirgi zamon ilmiy adabiyotida rang-barang ma'noni anglatadi.

Jamiyat madaniyatni vujudga keltiradi. Jamiyat boyib borsa, madaniyat ham yuksaladi. Alohida bir shaxsning alohida madaniyati bo'lmaydi. Shaxs muayyan jamiyatdagi madaniy muhitda yashaydi va madaniyati shaqllanadi. "Insoniyat jamiyat doimiy raqvvishda rivojlanishda bo'lib, o'zgarib takomillashib boradi. Turli tarixiy davrlarda xilma xil madaniyatlar mavjud bo'lib, insonlar dunyoning o'zgacha anglagan va qabul qilgan. Madaniyat jamiyatning mahsuli ijtimoiy hayotining muhim jabxalaridan biri. Madaniyatsiz jamiyat bo'lmagandek, madaniyat ham jamiyatdan tashqarida bo'lmaydi"[7].

Sotsiologiyada madaniyat tushunchasi inson tomonidan yaratilgan va yaratilayotgan barcha faoliyatlar mahsuli tarzida tushuniladi. Madaniyat sotsiologiyasi – biron bir jamiyatdagi mavjud madaniyatning aniq jarayonlarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi, shuningdek, inson faoliyatining rang-barang mahsullarini tarkibiy hamda mazmuniy jihatidan tadqiq etib, uning taraqqiyot tendensiyalarini ijtimoiy tizim hamda ijtimoiy institutlarga bog‘liq ravishda o‘rganuvchi fandır. Aniqroq qilib aytganda, har xil sotsiologik axborotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish bilan bog‘liq bo‘lgan madaniyat jarayonini empirik(tajriba) tadqiq qilishda ma’lum madaniyat sharoitida kishilarning o‘zaro munosabatlarida, sotsiomadaniyat toifalarida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy-madaniy yondashuvning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u inson mavjudligining uchta o‘lchovini (inson jamiyat bilan o‘zaro bog‘liqligi, madaniyatning tabiati, sotsializm turi) quyidagicha birlashtiradi asosiy, ularning har biri qolganlari bilan cheklanmaydi va ulardan chiqarilmaydi, lekin ayni paytda ular o‘zaro bog‘liq va ta’sir qiladi bir - birining ustiga. Mavzuning o‘zi tarkibiy qism sifatida tushuniladi eng oddiy madaniy sifatida boshqa sub’yektlar bilan o‘zaro munosabatlar hodisa. Jamiyatni o‘rganishga o‘rganish kabi yondashish kerak madaniy mahsulotlar.

Madaniyat sotsiologiyasi tarmoq sotsiologik nazariyasi bo‘lib, uning falsafiy asosini tashkil etuvchi madaniyat nazariyasi bilan bog‘liq. Agar madaniyat falsafasi umumiy narsalarni o‘rgansa jamiyatda madaniyatning rivojlanish qonuniyatlari, keyin madaniyat sotsiologiyasining predmeti uning faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari hisoblanadi muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoitlarda va ijtimoiy tuzilmalarda namoyon bo‘lishning shaxsiy shakllari.

Madaniyat sotsiologiyasining mazmuni quyidagilardan iborat:

- ma’lum bir jamiyatda mavjud bo‘lgan madaniy ob’ektlarni o‘zlashtirish, yaratish va uzatish shakllari va usullari;
- madaniy hayotda barqaror va harakatchan jarayonlar va ularni belgilovchi ijtimoiy omillar va mexanizmlar;
- muayyan ijtimoiy hamjamiyatning madaniyat rivojiga qo‘shgan aniq hissasi;
- ijtimoiy jamoalar a’zolari tomonidan madaniyatning rivojlanishini baholash guruhlar va ularning madaniy muhiti;
- ijtimoiy jamoalarda, ijtimoiy jamoalar o‘rtasida, umuman jamiyatda munosabatlarni tartibga soluvchi ijtimoiy-madaniy normalar;
- ijtimoiy tizim va umuman jamiyatning turli elementlarining ishlash texnologiyasi;
- turli xil ijtimoiy jamoalar, umuman jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida madaniy hayotning o‘ziga xos shakllari.

Madaniyat sotsiologiyasining predmeti, maqsad va vazifalari, uslub va hajmiga beriladigan baho ham o‘zgarib boryapti. Endilikda, madaniyat sotsiologiyasi jamiyatdagi madaniyat

ko‘rinishlarini, uning jamiyatda qabul qilingan me‘yorlarga mos ravishda rivojlanish darajasini va jamiyat strukturasi bog‘liq holda qanchalik o‘sayotganini o‘rganishning. o‘zi yetarli bo‘lmay qoldi. Endi, madaniyat sotsiologiyasi yuqorida sanab o‘tilgan vazifalarni bajarish bilan birgalikda, o‘z oldiga sotsiomadaniy o‘zgarishlarning asl sabablarini va ularning amalga oshirish yo‘llarini, qonun-qoidalarini topish hamda analiz qilishni maqsad qilib qo‘ymog‘i lozim. Barcha ijtimoiy fanlar qatori madaniyat sotsiologiyasi fanining ham asosiy muammosi inson hisoblanadi. Zero, madaniyat - bu inson yaratgan narsalardir. Madaniyat sotsiologiyasi insonning olam bilan faol munosabatini va bu munosabatlar uning hayot tarzida namoyon bo‘lishini o‘rganadi.

Kundalik hayotda va fanda madaniyat atamasidan foydalanish to‘g‘risidagi mulohazalarni xulosa qilib shuni aytish mumkinki, madaniyat eng keng ma‘noda insonni o‘rab turgan tabiatdan, ijtimoiy munosabatlarda va bevosita o‘zida stixiyali ravishda vujudga kelgan tayyor ma‘lumotlardan foydalanishni, ongli ravishda ajratib olishni taqozo etadi. Madaniyat tabiatdan farq qiladi, an‘analari, ramzlari, tili, bevosita taqlid qilish va amaliy o‘rganish orqali avlodlardan avlodga singdiriladi. Madaniyat shaxs tomonidan, uning sotsial jihatdan shakllanishi jarayonida o‘zlashtiriladi va asosan keng tarqalgan va ko‘pchilik qabul qilgan axloq, tafakkur va his qilishning parchalaridan tashkil topib, individual harakatlar hissi bunda juda kamdir.

XULOSA

Bugun dunyoning milliy qiyofasi rang-barang bo‘lib, u insonlarning milliy o‘zligini anglash jarayonining rivojlanishi bilan uyg‘un holatda takomillashib bormoqda. Insonlarning aql-zakovati o‘sib, moddiy sharoitlarni yaxshilab borishi ularning milliy o‘zligini anglashga bo‘lgan intilishiga ham o‘zining ta‘sirini o‘tkazmoqda. Hozirgi kunda butun dunyoda globallashtirish jarayonini har tomonlama chuqurlashuvi va axborot texnologiyalarining takomillashib borgan sayin milliy madaniyat, milliy qadriyatlar va a‘zaliy an‘analarni saqlab qolish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqoridagi fikrlarga asosan xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda yoshlarda axloqiy madaniyatning shakllanishida madaniyat sotsiologiyasining o‘rni muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2021 yil, 22-bet.
2. K.Kalanov. Madaniyat sotsiologiyasi. Darslik. Toshkent, 2020 yil, 6-bet.
3. Falsafa qomusiy lug‘at. Toshkent, “Sharq”, 2004 yil, 230-bet.
4. U.Qoraboyev. Madaniyat masalalari. Toshkent, 2009 yil, 5-bet.
5. D.N.Arziqulov. Madaniyatshunoslik. Ma‘ruzalar kursi. Toshkent, “O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012 yil, 7-bet.

6. E.Gulmetov, T.Qobiljonova, Sh.Ernazarov, A.Mavrulov. Madaniyatshunoslik. Ma'ruzalar matni. Toshkent, 2000, 7-bet
7. U.Mansurov, A.To'xtabayev. O'zbekistonning madaniyati va san'ati tarixi. O'quv qo'llanma. Namangan, 2019 yil, 5-bet
8. M.Bekmurodov, N.Yusupova. Madaniyat sotsiologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, "Yangi nashr", 2010-yil.
9. Э.Умаров, М.Абдуллаев, Э.Хакимов. Культурология. Ташкент, 2004.
10. Рафикова, Д. К., & Каримова, Г. Й. (2020). Ёшларни ижтимоий фаоллигини оширишда қадриятларнинг аҳамияти. *Перекрёсток Культуры*, 2(1).
11. Karimov, U., Karimova, G., & Makhamadaliev, L. (2022). The role and significance of spiritual values in youth education. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(2), 181-185.
12. Каримова, Г. Й. (2021). АХЛОҚ-МАЪНАВИЙ ТАҲДИДЛАРГА ҚАРШИ КУРАШНИНГ МАФКУРАВИЙ УСУЛИ СИФАТИДА. *Экономика и социум*, (6-1 (85)), 707-710.
13. Тешабоев, М., Каримов, Ў., & Каримова, Г. (2022). Глобаллашув Шароитида Ёшлар Тарбиясига Салбий Таъсир Этувчи Омиллар Ва Уларнинг Хусусиятлари. *SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 5(1), 382-388.
14. Karimov, U. U. (2021). Scientific and Theoretical Foundations of the Formation of the Social Environment in the Family. *Oriental Journal of Social Sciences*, 37-40.
15. Каримов, Ў., & Каримова, Г. (2021). Ахборот Оқими Ва Ахборот Маданиятининг Шаклланиш Тенденциялари. *Scientific progress*, 2(3), 743-750.